

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIK LARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA	43-48

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> КОМПАНИЯЛАР САМАРАЛИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ О'РНИ	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ	75-80
<i>Абдиева Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ	81-91
<i>Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	109-114

Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё
 АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ
 ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ 115-125

Худаярова Хуршида Абдуназаровна
 ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ 126-132

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли
 РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

Аликулов Хусниддин Акбарович
 ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .142-151

Саидова Камола Усканбаевна
 РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ
 СИФАТИДА 152-156

Shirinov Anvar Qanoatovich
 MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOYIY-
 FALSAFIY TAHLILI 157-162

Хасанов Бобуржон Хакимович
 ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ
 ОЛИШНИНГ ҲОЖИВИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ 163-167

Xodjayeva Fotima Nabixonovna
 AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF168-172

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna
 MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI 173-180

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi
 MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH
 TENDENSIYALARI 181-191

Turg'unova Fazilat Rustam qizi
 PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI 192-197

Saidov O'lmas Raxmatovich
 O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI 198-206

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna
 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA 207-213

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li
 MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ
 TA'SIRINING USULLARI 214-219

Murodova Nilufar Karomatovna
BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI 220-224

Ochilova Hilola Husan qizi
XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 225-229

Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK
TADQIQI 230-238

Yakubova Nilufar Egamberganovna
"MULLO NASRIDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA 239-245

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ 246-256

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Jumayev Rustam G'aniyevich
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 257-263

Бозорова Муслима
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА 264-270

Samadova Sarvinoz Samad qizi
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

Жўраев Воҳид Тожимаматович
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ 276-288

Бозорова Назокат
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ
СИФАТИДА 289-295

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li
МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI 296-301

Sharipova Sitara Xaydarovna
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN
FOYDALANISH 302-307

Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI
QO'LLASH 308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК- ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	350-356

10.00.00-Филология фанлари

Saidov O'lmas Raxmatovich,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti tayanch doktoranti

El. Pochta: saidov75@umail.uz. (97.402-24-75)

O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya. Fan-texnika va madaniyatning rivoj topishi, ijtimoiy-siyosiy aloqalarning tobora o'sib borishi o'zbek tili ish yuritish terminlari tizimida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayni paytda, terminlarning turli jihatlarini aniqlashtirish masalasini yaqqol namoyon etmoqda. Terminologik tizimlarda mavjud bo'lgan, tavsifiya etilayotgan yoki eskirgan termin o'rniga almashtirilayotgan yangi terminlarni ilmiy asoslash eng maqbul yo'l hisoblanadi. Etimologik tavsif qilish orqali o'zbek tilining ish yuritishga oid terminlarini chegaralab olish ehtiyoji dolzarb masaladir.

Kalit so'zlar: ish yuritish, termin, izohli lug'at, terminosistema, etimologik tavsif metodi, lisoniy tizim, leksikografiya, leksikografik belgi.

Саидов Улмас Рахматович,
Докторант Чирчикского государственного
педагогического университета

ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Развитие науки и техники и культуры, растущие общественно-политические отношения вызвали положительные изменения в системе делопроизводственной терминологии узбекского языка. В то же время остро стоит вопрос уточнения различных аспектов терминов. Научное обоснование новых терминов, существующих в терминологических системах, предложенных или замененных устаревшими терминами, является наиболее целесообразным способом. Необходимость ограничения терминов узбекского языка, связанных с работой через этимологическое описание, является актуальным вопросом.

Ключевые слова: практика, термин, толковый словарь, терминосистема, способ этимологического описания, языковая система, лексикография, лексикографический знак.

Saidov Ulmas Rakhmatovich,
Chirchik State Pedagogical University,
Doctorate student

ETYMOLOGICAL DESCRIPTION OF BUSINESS TERMS OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. The development of science and technology and culture, the growing socio-political relations have caused positive changes in the office work system of the terminology of the Uzbek language. At the same time, there is an acute issue of clarifying various aspects of the terms. The scientific substantiation of new terms existing in terminological systems, proposed or replaced by obsolete terms, is the most appropriate way. The need to limit the terms of the Uzbek language related to work through an etymological description is a topical issue.

Keywords: practice, term, explanatory dictionary, term system, method of etymological description, language system, lexicography, lexicographic sign.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N26>

Kirish. Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek tili asrlar davomida doimiy rivojlanishda, taraqqiyotda. Uning rivojlanishida asosiy manba vazifasini xalq so'zlashuv tili o'taydi. Xalq nutqida bir narsa, belgi, holat, harakatning nomi turlicha bo'lishi mumkin. Bu tabiiy hol. Zero, tilshunos olim A.Madvaliyev ta'kidlaganidek: "O'zbek tilining lahja va shevalari nafaqat fonetik va morfologik jihatdan, balki leksik jihatdan ham farqlanadi. Shevalararo va adabiy til leksikasidagi farqli birliklar til taraqqiyoti uchun birlamchi ahamiyatga ega. Leksik farqlar asosida so'zlashuv nutqining, xalq shevalarining lug'atini yaratish qiyin va murakkab, katta amaliy ahamiyatli vazifalardan biri sanaladi". [1]

Tilning leksik qatlamlari ikkiga bo'linadi: 1) o'z qatlam; 2) o'zlashgan qatlam. Tilning leksik tarkibini aniqlashda albatta, tilshunoslikning **etimologiya** bo'limiga murojaat qilinadi. Tilunos olim R.Rasulovning qayd qilishicha: "Tilshunoslikning falsafiy davrida yashab ijod qilgan yirik faylasuf olim Platon etimologiya fanining asoschisi hisoblanadi. U mantiqli nutqda ikki turdagi so'zlarni: otlarni va fe'llarni farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so'zni ot deb, kesim vazifasida kelgan so'zni fe'l deb, atadi. Fe'lning ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so'z ekanligini qayd etdi". [2: 22]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbek tilining 2020-yilda nashr etilgan yangi, besh jildli izohli lug'ati avvalgi, 1981-yilda chop etilgan ikki tomli izohli lug'atga nisbatan bir qator yangiliklar, ustuvorliklarga ega. Besh jildli izohli lug'atining eng muhim yangiliklari, afzalliklaridan biri unda o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'z va terminlarga to'liq etimologik ma'lumot berilganligidir. Qanday so'zlarga qay yo'sinda va qay darajada etimologik ma'lumot berish har ikkala lug'atni tuzish oldidan lug'at tuzuvchilar uchun yaratilgan yo'riqnomalarda maxsus belgilab berilgan va tuzuvchilar shu asosda ish olib borganlar. [3: 57-61]; [4: 12]

Til tarixiga nazar tashlansa, tilshunoslikning barcha bo'limlari haqida u yoki bu tarzda farqlanuvchi fikrlarga duch kelish mumkin. Shuningdek, "etimologiya" termini bir qancha manbalarda bir-biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi, shaklan va mazmunan o'zaro yaqin bo'lgan ta'riflarga ega ekanligi kuzatiladi: "Etimonlarni va ularni ifodalovchi so'zlarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi etimologiya deyiladi... Ba'zan etimologiyani so'zlarning kelib chiqishi haqidagi ta'limot deyilishi unchalik to'g'ri emas". [5: 110] Ushbu qarashlardan shu narsa ma'lumki, etimologiya termini haqida fanda turlicha nazariy fikrlar mavjudligiga ishora qilinadi.

So'zlarni etimologik jihatdan tahlil qilishdan maqsad tilning leksik sathidagi muayyan so'zning qachon, qaysi davrda, qaysi til orqali, qanday so'z yasaliş qolipi bo'yicha, qaysi til materiali asosida, qanday shaklda va qanday ma'no bilan o'zlashganligini aniqlashdan iboratdir.

So'zlar etimologiyasini belgilashning nisbatan qiyin va nisbatan oson jihatlari bor. Masalan, Mahmud Koshg'ariy davrida "bir turli mis" ma'nosida qo'llangan *chozt* (cho'zin) so'zining qachon va qanday qilib hozirgi "cho'yan" holatiga kelganini yoki qarg'aning turlarini anglatuvchi "*chumuq, chumchuq, chumguq*" [6] so'zlarining qachondan boshlab hozirgi "chumchuq" ma'nosiga ega bo'lganini aniqlash uchun bir qancha sheva materiallariga, ko'plab yozma manbalarga murojaat qilish, tarixan ro'y bergan fonetik va semantik o'zgarishlarni

qiyoslash va chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi. Masalan, oddiy *ovqat* so'zini olib ko'raylik. Bu so'zning arab tilidagi va o'zbek tilidagi ma'nolari deyarli bir xil bo'lsa-da, uning mazkur tillardagi fonetik qiyofasi va talaffuzi bir-biridan anchagina farq qiladi. *Ovqat* so'zi arab tilidagi *aqvot* so'zining o'zlashish jarayonida metatezaga va tovush o'zgarishiga uchragan ko'rinishidir. *Aqvot* so'zi esa, o'z navbatida, arabcha *sut* "oziq-ovqat, egulik; ozuqa, yem" so'zining siniq ko'plik shakli bo'lib, "oziq-ovqatlar, oziq-ovqat mahsulotlari" ma'nosini bildiradi. [7: 633].

Izohli lug'atga kiritilgan har bir so'z yoki termin bosh so'z hisoblanib, bosh so'z va unga oid materiallar alohida lug'at maqolasini tashkil etishi ma'lum. Lug'atda berilgan bosh so'zga oid etimologik ma'lumotlar lug'at maqolasining bosh so'zdan keyingi birligi hisoblanadi. Yuqorida zikr etilganidek, etimologik ma'lumot o'zbek va turkiy tillarga boshqa til oilalaridan o'zlashgan so'zlarga berilgan. 1981- yilda nashr qilingan ikki tomli izohli lug'atda ham bosh so'zlarga etimologik ma'lumotlar berilganligini ko'rish mumkin, unda o'zlashma (termin)larning qaysi tilga mansubligi shartli qisqartma orqali ko'rsatilgan. Masalan: a – arabcha, f-t – fors-tojikcha, r – ruscha va hokazo. Yangi 5 jildli izohli lug'atda esa muayyan so'z asli mansub bo'lgan til (shartli qisqartma bilan), so'zning shu tildagi yozilishi va dastlabki ma'nosi qayd etilgan. [1]

Natijalar va muhokama. 1981-yilda nashr qilingan 2 tomli va 2006-2008, 2020-yillarda nashr etilgan o'zbek tilining 5 jildli izohli lug'atlarida so'z va terminlarga berilgan etimologik ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, olinma so'zlar o'zbek tiliga, asosan, arab, fors, shuningdek, rus tili orqali hind-yevropa tillaridan o'zlashgani kuzatiladi. Bu esa fan-texnika, ishlab chiqarish yutuqlari orqali tilimizga ish yuritish tizimiga oid terminlarning juda ko'p miqdorda o'zlashib bo'lganligini ko'rsatadi.

Quyida 2 tomli (1981) va 5 jildli (2020) o'zbek tilining izohli lug'atlarida berilgan keng hajmli ish yuritish terminlarini tarixiy-etimologik qatlamini tasnif qilishga harakat qildik. Dastlab, 2 tomli izohli lug'atda ish yuritish tizimiga oid jami **1580** ta leksema-termin mavjudligi aniqlandi. Shundan:

1. O'z qatlamga mansub leksema-terminlar 485 ta: *agentlik, asosiy, asosli, ajratma, atama, bayram, bayroq, bahslashuv, bet, bildirish, birlashma, bitik, bitim, bitishuv, bosma, bosmaxona, bosmoq, bosqich, bosh, boshlang'ich, bo'nak, bo'nakdor, vakillik, vakolatli, vasiqali, vorislik, ishbay, muddatli ish, muddatsiz pasport, umumdavlat, umummilliy, sug'urta, so'zboshi, ulush, ustama, uyushma, qo'llanma, qo'shimcha, da'vatnoma, da'vogar, javobgarlik, fond birjasi, tovar birjasi, ijtimoiy kelib chiqish va boshq.*

Qayd etilgan o'z qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari tub yoki yasamaligi jihati bilan farqlanadi:

a) **tub ish yuritish leksema-terminlari** 32 ta: *bayram, bayroq, bet, bosmoq, bosh, burch, bo'ysunmoq, bo'nak, bo'sh, bo'g'in, yordam, yorliq, yil, kengash, patta, sinmoq, soliq, sug'urta, tamg'a, tiklamoq, tuman, tur, tug'ro, to'lamoq, ulush, ustama, chipta, yalpi, qurultoy* kabilar;

b) **yasama ish yuritish leksema-terminlari** 453 ta: *agentlik, ajratma, ajrim, atama, bahslashuv, bildirish, birlashma, bitik, bitim, bitishuv, bosma, bosmaxona, boshlang'ich, boshliq, boshqarmoq, boshliq, boshqarma, buyruq, buyurtma, buyurtmachi, yordamchi, javobnoma, jamg'arma, jinoyatchilik, ishxona, ishchi, kundalik, obunachi, normalashtirmoq, sudlov, akademik yil, ilmiy apparat, vaqtli matbuot* va boshq.

O'z qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlarining morfemik tarkibiga qaralsa, ularning asosida turkiy tillarga oid va o'zbekcha so'zlar bilan birga kelib chiqishi o'zga tillarga

mansub bo'lgan leksik birliklar ham kuzatiladi. Shunga ko'ra, bu leksema-terminlarni o'zbekcha asosli va o'zga tilga mansub asosli leksema-terminlarga ajratdik:

- **o'zbekcha asosli ish yuritish leksema-terminlari** 165 ta: *bildirish, birlashma, bitishuv, yozishma, bosmaxona, ishbay, ishxona, ishsizlik, yilbay, yilnoma, yilnomachi, yig'ilish, kechirim, kirim, kundalik, ko'nikma, ko'rgazma, mustaqillik, oylikbay, tamg'ador, tilaknoma, elchixona, saylov, saylovchi, uyushma, qisqartma, yozuv-chizuv, jamg'arma, yo'lkira, oqsoqol, so'zboshi, qo'lyozma* va boshq.

- **o'zga tilga mansub asosli ish yuritish leksema-terminlari**, xususan:

1) **arabcha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 119 ta: *asosiy, asosli, asossiz, a'zolik, vakillik, vakolatli, vasiqali, vorislik, vositachi, davlatlararo, jabrlanuvchi, jamoatchi, jamoatchilik, idorachilik, ijrochi, intizomsizlik, iste'molchi, iqtisodchi, malakali, maslahatchi, mas'uliyatli, mafkuraviy, ma'ruzachi, muzokarachi, navbatchi, nazoratchi, himoyachi, hisobchi, hujjatli* va boshq.;

2) **fors-tojikcha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 14 ta: *guvohlik, devonbegi, namoyishchi, namunaviy, nishonlamoq, nogironlik, paychi, parvonachi, rejalashtirish, sudxo'rlik, farmonachi, o'lponchi, qog'ozbozlik, hamkorlik*;

3) **ruscha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 19 ta: *dokladnoma, dokladchi, dumaxona, zakazchi, obzorchi, progulchi, pudratchi, suverenlik, sudlanganlik, sudlanuvchi, sudlov, tabelchi, xalturachilik* kabilar;

4) **baynalminal so'z+o'zbekcha qo'shimcha** yordamida hosil bo'lgan terminlar 27 ta: *agentlik, biletchi, birjachi, kalkalamoq, kompaniyabozlik, kandidatlik, kollektivlashtirmoq, kolleksiyachi, konsullik, konsulxona, kooperativlashtirmoq, monopoliyachi, nomerlamoq, normallashtirmoq, normalashtirmoq, obunachi, ordenli, partiyaviylik, standartlashtirish, siklli, shifrlamoq* kabilar;

5) **kalkalash usuli bilan hosil qilingan leksema-terminlar** 141 ta: *adres stoli, akademik yil, aktiv balans, mehnat daftarchasi, omonat daftarchasi, dekret otpuskasi, diplomatik korpus, faxriy yorliq, zachyot daftarchasi, ijtimoiy ahvol, kadrlar bo'limi, markaziy komitet, yuridik shaxs* va boshq.

2. O'zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari. Xususan:

- **arab tiliga oid leksema-terminlar** 358 ta: *alomat, aloqa, amal, amaliyot, amru farmon, ayb, arbob, ariza, asos, badal, bayon, bayonot, bahs, vazir, vazifa, vakil, vakolat, varaqa, vasiy, davlat, davomat, dalil, dalolat, da'vo, javob, jadval, jamiyat, jamoa, jarida, jarima, zakot, ziddiyat, ijro, ijroiya, iste'mol, kafolat, kotib, lavozim, majburiyat, majlis, ma'lumot, tijorat, unvon, fuqaro, foiz, xabar, xat, e'lon, e'tirof, hokim, huquq* va boshq.;

- **fors-tojik tiliga oid leksema-terminlar** 67 ta: *andoza, anjuman, band, bojgir, bojxona, bozor, buromad, garov, guvoh, guvohnoma, daromad, dastur, devon, devonxona, yodnoma, jangnoma, kamomad, korxonona, namuna, narx, nomzod, ovoz, pay, paygir, payg'om, parvona, pul, rahbar, ro'znoma, qog'oz, farmoyish, farmon* va boshq.;

- **arabcha so'z+fors-tojikcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 86 ta: *aybnoma, amaldor, aybdor, aybona, arznoma, arizaboz, ahdnoma, bayonnoma, boqimonda, vakolatnoma, vakolatxonona, vasiyatnoma, vaqfnoma, darakanoma, da'vatnoma, da'vogar, javobgar, javobnoma, jarimador, zarbdor, zafarnoma, ijarador, ijaraxo'r, ijozatnoma, iltimosnoma, kafolatnoma, mansabdor, mansabparast* va boshq.;

- **fors-tojikcha so‘z+arabcha vosita** shaklida hosil bo‘lgan leksema-terminlar 9 ta: *dastxat, donabay, ro‘yxat, sardaftar, sarkotib, sarlavha, sarmunshiy, sarxat, husnixat;*

- **rus tiliga oid leksema-terminlar** 166 ta: *aviapochta, agitpunkt, adresant, adresat, aksioner, aliment, anketa, biografik, vedemost, vzos, vigovor, vistavka, vitse-prizident, vitse-admiral, diplomatiya, disserntant, doklad, direksiya, дума, jurnalist, zabastovka, karta, kartochka, metodika, obzor, pensioner, penya, partkom, progul, putyovka, raykom, soyuz, formulirovka, yubilyar, cho‘t, yacheyka va boshq.*

O‘zbek tilining 2 tomli izohli lug‘atida lotin, ingliz, fransuz, nemis, grek, italyan, polyak va boshqa yevropa tillaridan o‘zlashgan barcha so‘z va terminlar rus tili orqali o‘zlashganligi ta’kidlanadi. Lug‘atda avvalo, rus tili, so‘ngra so‘zning asl kelib chiqish manbai bo‘lgan til ko‘rsatiladi. Shu asosda, 2 tomli lug‘atdagi **rus tili orqali boshqa tillardan kirib kelgan (baynalminal) leksema-terminlar** soni 409 tani tashkil qiladi. Jumladan: *abzas[r<nem.], abiturient[r<lat.], abonoment[r<fr.], absentizm[r<lat.], avtobiografiya[r<grek.], avtograf[r<grek.], avtor[r<lat.], avtoreferat[r<grek+lat.], agent[r<lat.], agitatsiya[r<lat.], akt[r<lat.], aksiz[r<lat.], annotatsiya[r<lat.], amortizatsiya[r<lat.], balans[r<fr.], ball[r<fr.], banderol[r<fr.], banknot[r<ingl.], bankrot[r<nem.], vakansiya[r<fr<lat.], valyuta[r<ital.], variant[r<lat.], gerb[r<polyak.], gimn[r<grek.], gonorar[r<lat.], grafa[r<grek.], dekada[r<fr.], deklaratsiya[r<lat.], import[r<ingl.], inspeksiya[r<lat.], integratsiya[r<lat.], kadr[r<fr.], kalendar[r<lat.], kapital[r<nem.], kvorum[r<lat.], klishe[r<fr.], kollegiya[r<lat.], komissiya[r<lat.], lotareya[r<fr.], marka[r<ingl.], monopoliya[r<grek.], partiya[r<nem.], pasport[r<fr.] va boshq.*

Yuqoridagi tasnifni yaqqolroq ifodalash maqsadida jadval ko‘rinishida quyidagicha berishni lozim deb topdik: (1-jadval)

1-jadval

No	Tarixiy-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1. O‘z qatlamga mansub leksema-terminlar			
1	O‘zbekcha asosli leksema-terminlar	165	10%
2	Arabcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	119	8%
3	Kalkalash usulida hosil qilingan leksema-terminlar	141	8%
4	Baynalminal so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	27	2%
5	Ruscha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	19	1%
6	Fors-tojikcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	14	1%
Jami		485	30%
2. O‘zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari			
1	Rus tili orqali boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan leksema-terminlar	409	27%
2	Arab tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	358	23%
3	Rus tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	166	10%
4	Arabcha so‘z+fors-tojikcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	86	5%
5	Fors-tojik tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	67	4%
6	Fors-tojikcha so‘z+arabcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	9	1%
Jami		1095	70%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikki tomli o'zbek tilining izohli lug'atida ish yuritish tizimiga oid terminlarning umumiy miqdoriga ko'ra 30% ini o'z qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlar tashkil qilib, shundan 10%i o'zbek(turk)cha asosli so'zlardir. O'zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari esa nisbatan katta ulush – 70 foizni tashkil etishi aniqlandi. Aytish joizki, arab tilidan o'zlashgan terminologik birliklar ham (23%) ish yuritish terminosistemasida yetakchilik qiladi.

5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atida mavjud ish yuritishga doir leksema-terminlarning tarixiy-etimologik tahlili quyidagi natijalarni berdi. 5 jildli (2020) o'zbek tilining izohli lug'atida ish yuritishga oid jami **1708** ta leksema-terminlar mavjud bo'lib, shundan:

1. O'z qatlamga mansub leksema-terminlar 519 ta. Bular:

a) **tub ish yuritishga oid leksema-terminlar** 21 ta: *bayroq, boqon, bo'nak, bo'g'in, yordam, yorliq, yil, kengash, pay, soliq, sug'urta, tamg'a, tarmoq, tuman, tur, turkum, tug'ra, chipta, yalpi, o'lpon, qurultoy;*

b) **yasama ish yuritishga oid leksema-terminlar** 498 ta: *agentlik, ajratma, aksionerlik, atamashunos, arxivshunoslik, atamashunoslik, birlashma, birxillashtirish, bitiruvchi, bosmaxona, boshqarma, byurtmachi, vaqtbay, ishlanma, ishsizlik, ishxona, oshkoralik, chegirma, elchi, o'lponchi, qisqartma, qutlov, qo'shma, huquqbuzar, huquqbuzarlik, hujjatchilik, aksiyadorlik jamiyati* kabilar;

- **o'zbekcha asosli ish yuritish leksema-terminlari** 158 ta: *ajratma, ajrim, atama, atamashunos, bayroq, bildirish, bo'linma, boshqaruv, buyurtmachi, bo'nakchi, vaqtbay, yetakchilik, yozishma, yollanma, yordamchi, ishsizlik, ishchi, yo'llanma, yo'qlama, kelishuv, kundalik, ko'rsatkich, kechirim, oylik, otaliq, oshkoralik, chegirma* va boshq.;

- **o'zga tilga mansub asosli ish yuritish leksema-terminlari**, xususan:

1) **arabcha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 131 ta: *aybdor, asosiy, asosli, asossiz, a'zolik, vakillik, vakolatli, vasiqali, vorislik, vositachi, davlatlararo, jabrlanuvchi, jamoatchi, jamoatchilik, idorachilik, ijrochi, intizomsizlik, iste'molchi, iqtisodchi, malakali, maslahatchi, mas'uliyatli, mafkuraviy, ma'ruzachi, muzokarachi, navbatchi, nazoratchi, himoyachi, hisobchi, hujjatli* va boshq.;

2) **fors-tojikcha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 15 ta: *guvohlik, dasturiy, dahaboshi, kasanachi, kasanachilik, nishonlamoq, nogironlik, ogohlantirish, rejalashtirish, savodlilik, savodsizlik, sudxo'rlik, farmonachi, xomcho't, qog'ozbozlik;*

3) **ruscha so'z+o'zbekcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 20 ta: *dokladnoma, dokladchi, dumaxona(tar.), zayomshurushlik(tar.), zakazchi, obzorchi, obunachi, progulchi, pudratchi, rayijrokom, sudlanganlik, sudlanuvchi, sudlov, teletomoshabin, xalturachilik* kabilar;

4) **baynalminal so'z+o'zbekcha qo'shimcha** yordamida hosil bo'lgan terminlar 43 ta: *agentlik, aksionerlik, aksiyador, bilechi, birjachi, gazetachi, gazetxonlik, kompaniyabozlik, kandidatlik, kollektivlashtirmoq, kolleksiyachi, konsullik, kooperativlashtirmoq, monopoliyachi, nomerlamoq, normallashtirmoq, normalashtirmoq, obunachi, ordenli, partiyaviylik, standartlashtirish, siklli, shifrlamoq* kabilar;

5) **kalkalash usuli bilan hosil qilingan leksema-terminlar** 152 ta: *adres stoli, ayblov xulosasi, akademik yil, aktiv balans, mehnat daftarchasi, omonat daftarchasi, dekret o'tpuskasi, diplomatik korpus, faxriy yorliq, zachyot daftarchasi, ijtimoiy ahvol, kadrlar bo'limi, markaziy komitet, yuridik shaxs, hurmat taxtasi* va boshq.

2. O'zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari. Xususan:

– **arab tiliga oid leksema-terminlar** 373 ta: *ayb, alomat, aloqa, amal, amaliyot, amru farmon, ayb, arbob, ariza, asos, badal, bayon, bayonot, bahs, vazir, vazifa, vakil, vakolat, varaqa, vasiy, davlat, davomat, dalil, dalolat, da'vo, javob, jadval, jamiyat, jamoa, jarida, jarima, zakot, ziddiyat, ijro, ijroiya, iste'mol, kafolat, kotib, lavozim, majburiyat, majlis, ma'lumot, tijorat, unvon, fuqaro, foiz, xabar, xat, e'lon, e'tirof, hokim, huquq* va boshq.;

– **fors-tojik tiliga oid leksema-terminlar** 67 ta: *andoza, anjuman, band, bojgir, bojxona, bozor, buromad, garov, guvoh, guvohnoma, daromad, dastur, devon, devonxona, yodnoma, jangnoma, kamomad, korxonona, namuna, narx, nomzod, ovoz, pay, paygir, payg'om, parvona, pul, rahbar, ro'znoma, qog'oz, qo'mita* va boshq.;

– **arabcha so'z+fors-tojikcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 65 ta: *amaldor, arizaboz, ahdnoma, bayonnoma, boqimonda, vakolatnoma, vakolatxona, vasiyatnoma, vaqfnoma, darakanoma, da'vatnoma, da'vogar, javobgar, javobnoma, jarimador, zarbdor, zafarnoma, ijarador, ijaraxo'r, ijozatnoma, iltimosnoma, kafolatnoma, mansabdor, mansabparast* va boshq.;

– **fors-tojikcha so'z+arabcha vosita** shaklida hosil bo'lgan leksema-terminlar 13 ta: *dastxat, peshlavha, rahbariyat, ro'yxat, sarkotib, sarlavha, sarmunshiy, sarxat, sarhisob, xatkash, xushxabar, xushxat, qog'ozjild*;

– **rus tiliga oid leksema-terminlar** 63 ta: *avtomat-spravochnik, advokatura, adliya, administrator, aspirantura, bibliograf, buxgalteriya, vedemost, doklad, jurnalist, jurnalistika, kvartal, kartochka, xarakteristika, raykom, tovar, otpuska* va boshq.

– **lotin tiliga oid leksema-terminlar** 251 ta: *abiturient, abolitsiya, absentizm, bakalavr, bakalavriat, vakansiya, vakant, verdikt, versiya, veto, viza, debet, debitor, dublikat, indeks, kalendar, kasatsiya, konvensiya, emissiya, yustitsiya* va boshq.;

– **fransuz tiliga oid leksema-terminlar** 111 ta: *abonoment, abonent, attashe, balans, ball, banderol, bankir, bilet, departament, diplom, kadr, kompaniya, lotareya, menyu, modernizatsiya, reglamant* va boshq.;

– **yunon tiliga oid leksema-terminlar** 67 ta: *gimn, gonorar, evro, ideogramma, grafologiya, kartogramma, kartografiya, katolog, metod, metodika, monografiya, tezis, emblema, epigraf, fonogramma* va boshq.;

– **ingliz tiliga oid leksema-terminlar** 67 ta: *banknot, bankomat, barter, biznes, biznesmen, brifing, diler, import, lizing, miting, teletaym, shou-biznes, eksport* va boshq.;

– **nemis tiliga oid leksema-terminlar** 52 ta: *а́бзас, adresant, adresat, anshlag, arest, bankrot, bron, investitsiya, kapital, kontora, makler, marka, order, signal, shablon, yarmarka* va boshq.;

– **italyan tiliga mansub leksema-terminlar** 11 ta: *avizo, akkord, brutto, valyuta, gazeta, inkassa, kassa, kvitansiya, stepler, trafaret, firma*;

– **polyak tiliga oid leksema-terminlar** 2 ta: *gerb, pochta*.

Bundan tashqari, 5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atida turli tildan o'zlashgan so'zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo'lgan terminlar ham mavjud (47 ta): *(ruscha+yunoncha): avtobiografiya, telegramma, telegraf, telegrafist, teleografiya, telemarafon, telemexanika, telemexanizatsiya, tematika, telefonogramma; (ruscha+inglizcha): telekommunikatsiya, telemarketing; (ruscha+polyakcha): aviapochta; (ruscha+lotincha): televideniya; (ruscha+italyancha): telestudiya; (ruscha+fransuzcha): telekompaniya;*

(yunoncha+ruscha): kserokopiya, tematika, fototelegramma, fototelegraf, fotomaterial, fotoxronika; (yunoncha+fransuzcha): fotomontaj, fotoreportaj, fotoreportyor; (yunoncha+lotincha): avtoreferat; (yunoncha+inglizcha): fotosyomka; (lotincha+ruscha): konraktatsiya, rektorat, tekstolog, tekstologiya, yubilyar; (lotincha+yunoncha): radiogramma; (lotincha+fransuzcha): aksiya; (fransuzcha+lotincha): byurokrat; (fransuzcha+ruscha): byurokratizm, jurnalist, jurnalistika, stajirovka; (inglizcha+fransuzcha): press-konferensiya; (inglizcha+lotincha): telefaks; (nemischa+lotincha): registrator kabi terminlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi tasnifni jadval ko'rinishida quyidagicha aks ettirishni lozim topdik: (2-jadval)

2-jadval

No	Tarixiy-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1. O'z qatlamga mansub leksema-terminlar			
1	O'zbekcha asosli leksema-terminlar	158	10%
2	Arabcha so'z+o'zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	131	7%
3	Kalkalash usulida hosil qilingan leksema-terminlar	152	8%
4	Baynalminal so'z+o'zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	43	3%
5	Ruscha so'z+o'zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	20	1%
6	Fors-tojikcha so'z+o'zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	15	1%
Jami		519	30%
2. O'zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari			
1	Arab tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	373	22%
2	Fors-tojik tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	67	4%
3	Rus tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	63	4%
4	Arabcha so'z+fors-tojikcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	65	4%
5	Fors-tojikcha so'z+arabcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	13	1%
6	Lotin tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	251	15%
7	Fransuz tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	111	7%
8	Yunon tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	67	4%
9	Ingliz tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	67	4%
10	Nemis tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	52	3%
11	Italyan va polyak tilidan o'zlashgan leksema-terminlar	13	1%
12	Kombinatsiya usulida o'zlashgan leksema-terminlar	47	3%
Jami		1189	70%

Jadvaldan ma'lum bo'ladiki, 2 tomli lug'atga nisbatan 5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atida ish yuritish tizimiga oid leksema-terminlarga to'liqroq etimologik ma'lumotlar berilgan. Jumladan, 5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atida ham ish yuritish tizimiga oid terminlarning umumiy miqdoriga ko'ra 30% ini o'z qatlamga mansub leksema-terminlar tashkil qilgan, shundan 10% i o'zbek(turk)cha asosli so'zlar ekanligi aniqlandi. O'zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlar ulushi 70 foizni tashkil etadi.

2 tomli o'zbek tilining izohli lug'atida lotin, ingliz, yunon, nemis, fransuz, italyan, polyak va boshqa tillardan olingan so'zlar, asosan, rus tili orqali kirib kelgan terminlar sifatida

izohlangan hamda umumiy miqdori 27% ni tashkil etadi. 5 jildli izohli lug'atda esa sanab o'tilgan tillardan o'zlashgan terminlar etimologiyasi yuqorida ta'kidlanganidek, mumkin qadar to'liqroq berilgan. Umumiy miqdori esa 35%ni tashkil etadi. Aytish joizki, 5 jildli izohli lug'atni tuzishda 1981-yilda nashr etilgan ikki tomli izohli lug'at materiallaridan foydalanilgan. Lekin u ikki tomli lug'atning to'ldirilgan yoki qandaydir o'zgartishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug'at. U hozirgi o'zbek tili leksikasining holatini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yaratilgan. [8: 8]

Xulosa. Har ikkala o'zbek tilining izohli lug'atida arab tiliga mansub birliklar salmoqli o'rinni egallaydi. Bu so'zlarning ko'p qismi umumturkiylik xususiyatiga ega ekanligini inkor etmagan holda sof o'zbekcha so'zlarning salmog'ini oshirish xalqimizning o'z tilidan kengroq va soha tili sifatida foydalanish qamrovini oshirishiga xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

Sof o'zbek tiliga oid ish yuritish birliklarining termin sifatida qo'llanish holati navbatdagi izohli lug'at uchun manba bo'lishiga ishonamiz. Izohli lug'atlarga hali kiritilmagan birliklarni lug'atlarda aks ettirish, ish yuritish amaliyotida faol qo'llash jarayonida tilimizning keng imkoniyatlarini namoyon qilgan bo'lamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. A.Madvaliyev. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 250 b.
2. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: 2007.
3. O'zbek tilining izohli lug'atini tuzish uchun qo'llanma. – Toshkent: 1964.
4. O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma (tuzuvchi A. Hojiyev). – Toshkent: 2000.
5. Sodiqov A, Abduazizov A, Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: 1981.
6. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. –Toshkent: 1967.
7. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – Москва: 1977. – С. 663.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-jild.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. – Moskva: "Rus tili" nashriyoti, 1981. 1-tom. – 632b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. – Moskva: "Rus tili" nashriyoti, 1981. 2-tom. – 716 b.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 1-jild. – 680 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 2 -jild. – 672 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 3-jild. – 688 b.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 4-jild. – 608 b.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 5-jild. – 608 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).